FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 30 Issue 5, 2024-yil DOI: 10.56292/SJFSU/vol30_iss5/a40

UO‘K: 811.512.133

METAFORALARNING POETIK MATNDAGI O‘RNI (SIDDIQ MO‘MIN IJODI MISOLIDA)

МЕСТО МЕТАФОРЫ В ПОЭТИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ (НА ПРИМЕРЕ РАБОТЫ СИДДИКА МОМИНА)

THE PLACE OF METAPHORS IN THE POETIC TEXT (IN THE EXAMPLE OF SIDDIK MOMIN’S WORK)

Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna[1]
[1]Farg‘ona davlat universiteti dotsenti

Usmonova Ziyodaxon Ilxomjonovna[2]
[2]Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tilshunoslikda ma’no ko‘chishi bilan bog‘liq hodisa - metaforaning tur va xususiyatlari, uni olamni idrok etishdagi kognitiv mexanizm sifatida baholanishi, badiiy asar jozibadorligini oshirishda, leksik qatlamni boyitishdagi o‘rni olim va shoir Siddiq Mo‘min ijodi misolida tahlil qlilingan.

Аннотация

В данной статье рассматривается феномен, связанный с передачей смысла в лингвистике - виды и характеристики метафоры, ее оценка как когнитивного механизма в восприятии мира, ее роль в повышении привлекательности художественного произведения, обогащении лексического запаса. Слой анализируется на примере творчества учёного и поэта Сиддика Момина.

Abstarct

This article examines the phenomenon associated with the transfer of meaning in linguistics - the types and characteristics of metaphor, its assessment as a cognitive mechanism in the perception of the world, its role in increasing the attractiveness of a work of art, enriching the lexical stock. The layer is analyzed using the example of the work of the scientist and poet Siddiq Mamin.

Kalit so‘zlar: *metafora, ko‘chim, apastrofa, sinestetik, kognitiv mexanizm, antroposentrik*

Ключевые слова: *метафора, смещение, апостроф, синестетик, когнитивный механизм, антропоцентризм*

Key words: *metaphor, displacement, apostrophe, synesthetic, cognitive mechanism, anthropocentric*

KIRISH

Badiiy matn tilining ta’sirchanligini oshirish, unda obraz va badiiy ko‘lam yaratish, muallif dialektini hosil qilishda metaforaning o‘rni beqiyosdir. Metaforik ifodalar ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslikning asosiy o‘rganish obyekti sifatida, ko‘plab tadqiqotlar manbasi bo‘lgan. Buyuk faylasuf olim Forobiy o‘zining “She’r san’ati” risolasida quyidagilarni yozadi: “Har bir narsa biror narsaga o‘xshagan bo‘lgani uchun u tasavvur qilinadi. Yoki bo‘lmasa bir yoki ikki narsa vositasi bilan tasavvur qilinadi. Bu esa o‘xshatilgan narsaga bo‘lgan mulohazaga ko‘ra bo‘ladi. Ko‘pchilik odamlar asliga yaqin bo‘lgan narsalarga bo‘lgan taqlid qilishdan ko‘ra aslidan uzoq bo‘lgan narsalarga taqlid – tashbihni eng mukammal va afzal bo‘ladi, deb o‘ylashadi. Ularning fikricha, bunday holatda turib mulohaza yurituvchilar taqlid borasida ishlovchilar orasida eng layoqatli kishi sanaladi, unday kishi bu san’at ahliga juda munosib keladi va taqlidni o‘z yo‘liga moslab, ulardan foydalanad.”[1] Darhaqiqat, ijodkor so‘z tanlashda borliqni biz ko‘rib turgan odatiy vaziyatdan o‘zgacha holatda aks ettiradi, uni o‘z dunyosi, mental tafakkuri tomon yetaklaydi, aslidan uzoqlashtiradi. Natijasi o‘laroq esa ijodda turli ko‘chimlar paydo bo‘ladi. Metafora ham ana shunday mahsullar natijasidir. Taniqli ijodkor Siddiq Mo‘min ijodining jozibasi ham u qo‘llagan metaforalar bilan bevosita aloqadordir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Metafora tushunchasi antik davrdan buyon mavjud bo‘lib, uzluksiz tadqiq etilgan bo‘lsa-da, u har doim yanada ko‘proq tadqiq va dalillarni talab etaveradi. Chunki har bir ijodkorning mental olami, kognitiv tafakkuri, individual dialekti so‘zga sayqal berishda, obrazni aks ettirishda okkazional metaforalar dunyoga kelishiga sabab bo‘ladi. Metafora tushunchasi o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ta’riflanadi: metafora [yun. metaphora – ko‘chirish, ko‘chim] ad. So‘z yoki iborani o‘xshashlik yoki o‘xshatishga asoslangan ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘z yoki ibora; istiora, majoz.[2]

Antik davrlardan buyon lingvistika sohasida faoliyat olib borgan namoyondalar metaforani uch guruhga ajratishgani ilmiy adabiyotlarda o‘z ifodasini topgan. Jumladan, Arastu va uning izdoshlari metaforani o‘xshatishning har qanday usuli sifatida e’tirof etsa, Potebnya va uning izdoshlari esa metaforani qisqargan o‘xshatish deb baholagan. Til taraqqiyoti natijasi o‘laroq A. Vajbitskaya, N. Arutyunova va o‘zbek tilshunoslari metaforaga nom ko‘chishining alohida bir turi sifatida qarashgan[3].

Tilshunos olim M. Mirtojiyev metaforani so‘z hosila ma’nosining yuzaga kelishi hosil qiluvchi va hosila ma’no referentlari o‘rtasidagi o‘xshashlikka ko‘ra nomlasa,[4] hosila ma’no yuzaga kelishining eng faoli aynan metafora bilan belgilanishini ta’kidlaydi. M. Yo‘ldoshev metaforani narsa-buyum, voqea va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlikka asoslangan ma'no ko‘chishi [5] deb ta’riflaydi. Tilshunos olima D. Rustamovaning e’tirof etishicha: “ Metaforaga bo‘lgan qarashlarda, xoh u an’anaviy, xoh u noan’anaviy bo‘lsin, so‘zlovchi uchun uni ifodalash, tinglovchi uchun borliqni bilish vositasi ekanligi umume’tirof etiladigan hodisadir.”[6]

Hozirgi kunda metaforaga nafaqat tilshunoslik doirasida, balki olamni bilish jarayonining kognitiv mexanizmi sifatida qaralmoqda. Chunki, inson bilish jarayonida qiyoslash, chog‘ishtirish, narsalarning o‘xshash jihatlariga ko‘ra nom berishga ehtiyoj sezadi, bu esa metaforaning ikkilamchi nominatsiyada muhim o‘rin egallashni bildiradi. Sh. Maxmaraimova o‘zining ilmiy tadqiqotida o‘zbek tili metaforalarini antroposentrik jihatdan tadqiq etib, antik metaforologiya oid Kvintilianning quyidagi fikrlarini tahlilga tortadi: “Kvintilianga ko‘ra metafora quyidagi hollarda ishga tushiriladi: 1) o‘z nomiga ega bo‘lmagan predmetni nomlash (zaruratidan) uchun (zamonaviy tasnifga ko‘ra nominativ metafora (nesesse est) – qattiq odam; 2) obyektga nisbatan munosabatni ifodalash, baholash uchun (nutqni jozibador qilishga ta’sir ko‘rsatadi) – baholovchi metafora (singnificantius est) – *nafrati olovlandi*; 3) nutqni bezash uchun (nutqni go‘zalllashtirish uchun) – dekorativ metafora (ad ornatum) – *so‘zamollik daryolari*.”[7]

Umuman olganda, badiiy matn kontekstida metaforalar tahliliga qaratilgan tadqiqotlar o‘zbek va dunyo tilshunosligida hamisha dolzarb bo‘lib qolgan. Biz asarlarini tahlilga tortgan adib Siddiq Mo‘minning ijod mahsullari ham metaforalarning yangi ma’no va ifoda qirralari bilan boyitilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Muloqotning samarali vositalaridan biri bo‘lgan metafora qo‘llash ijodkor ahli uchun san’at bo‘lsa, o‘quvchi uchun yangi kashf, yangi olamdir. Metafora mental tafakkur mahsuli sifatida ijodkorning tasavvur olami, ichki dunyosini ochiqlab beradi, o‘quvchini shoirning g‘ayritabiiy olamga yetaklaydi:

Sen – bokira, tog‘ suvidek
Oqayabsan ***shaldirab***.
Sen haqingda, mayli, kimdir
Yashayversin valdirab.

Siddiq Mo‘minning ushbu to‘rtligidagi *shaldirab* so‘zining asosi taqlid so‘z bo‘lib, tilshunos olim R. Qo‘ng‘urov taqlid so‘zlarga tasviriy so‘zlar sifatida baho beradi. Olim eshitish bilan bog‘liq voqelikni tovushga taqlid so‘z ekanligini ta’kidlaydi. Metaforik tasviriy so‘zlar ifodalagan hodisalarni ko‘rolmaymiz ham, eshita olmaymiz ham: Sidiqjonning yuragi ***jiz*** etdi (A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari). Tasviriy so‘zlar kishi organizmida paydo bo‘lgan fiziologik sezgilarni, ichki kechinmalarni ifodalash uchun foydalanilganda ular ma’nosida metaforizatsiya hodisasi yuz beradi.”[8]

Ustoz shoir Siddiq Mo‘min ham ayolga nisbatan ***oqayabsan shaldirab*** metaforasini qo‘llash orqali tog‘ suvi qanchalik zilol, pokiza ***sharqirab*** oquvchi bo‘lsa, ayol ham shunday pokiza hayot yo‘lini bosib o‘tayotgani va bu o‘rinda ***sharqirab*** emas, ***shaldirab,*** ya’ni uning pokizaligi bilan

bir qatorda soddaligi chizgisini ham chiza olgan. Shoir nazarida ayol hayot so‘qmoqlarida katta-kichik xizmatiga beminnat kamarbasta bo‘laverib, mung‘ayib tugab borayotganini ifodalaydi. Ayolning pokiza, sodda hayot tarzini sharqiramoq fe’li orqali emas, shaldiramoq fe’li orqali ifodalashni ma’qul topgan.

Tilshunos olimlar metaforani nutq mexanizmi sifatida baholab, biror leksema denotatlarining shakliy, zohiriy o‘xshashligi asosida boshqa ma’noni ifodalash uchun ishlatilishini [9] aytib o‘tadilar. Shoir ijodida ham ana shunday hodisalarni ko‘rishimiz mumkin:

Har kimlarga dil ***bog‘ini*** Xushlatmagan ayolsan.
Nomahramga barmog‘ini Ushlatmagan ayolsan.

Bu o‘rinda ***bog‘*** leksemasi denotativ ma’nodan konnotativ ma’noga o‘tib metafora hosil qilmoqda.

M. Yo‘ldoshev metaforani lingvistik va xususiy-muallif metaforalariga ajratadi. Lingvistik metafora til taraqqiyoti bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, faqatgina ma’lum bir so‘zning ma’no doirasi kengayishi va yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qilishini [10] aytadi. Xususiy-muallif metaforalari esa yozuvchining estetik maqsadini ifodalab, hamisha konnotativ ma’noga ega bo‘lishini aytib o‘tadi.

Ustoz shoir ijodining xususiy-muallif metaforalariga boy va xilma-xillgi bir jihatdan uning estetik tafakkuri bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi jihatdan uning tilshunos olim ekanligi bilan ham baholanadi. Siddiq Mo‘min metaforaning odatiy, jonlantirish va sinestetik turlarini keng qo‘llagan:

Kel, qanoting bog‘lab qo‘yayin,
“Muharrir”dan o‘q yegan ***she’rim***!

Jonsiz narsaga xuddi insonga murojaat qilgandek munosabatda bo‘lish ham jonlantirishning bir ko‘rinishi hisoblanadi va adabiyotshunoslikda bu hodisa apastrofa deb yuritiladi, bunda narsa - buyum jonlantirilmaydi, faqat jonli deb tasavvur qilinad.[11] Yuqoridagi satrlarda muallif *she’rga* huddi shaxsga murojaat qilgandek munosabatda bo‘lish orqali metaforaning jonlantirish turini hosil qilgan bo‘lsa, quyida uning sinestetik metaforalariga guvoh bo‘lamiz:

Qizlar uni suysa ham, Rashk o‘tida ***kuysa*** ham,
Irodasi mustahkam, Shoirlarning xotini. (Shoirlarning xotini)
Otam derdi safarga chiqsang, Hamroh bo‘lsin tillari ***bollar***,
Adashmaysan so‘zini uqsang, Yo‘ldosh bo‘lsa gar oqsoqollar

Sinestetik metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushunchaga o‘xshatiladi, yaqinlashtiriladi va shu orqali ko‘chma ma’no hosil qilinadi. [12]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, shoir va olim Siddiq Mo‘min ijodida leksik qatlamning rang-barangligi, sodda va tushunarli ifodasi, o‘quvchi qalbini o‘ziga ohangrabodek tortishi u qo‘llagan metaforalar bilan bevosita bog‘liqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абу Наср Фаробий, Шеър санъати . – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1979. 18-б
2. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. Тошкент “Мумтоз сўз” -2010, 92-б
3. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Т.: Фан, 1966 – Б.76.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M., Boqiyeva G Hozirgi o’zbek adabiy tili. – Toshkent-2005, B-113
5. Yo’ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent -2008, B - 87
6. A. Madvaliyev tahriri ostida O’TIL , Toshkent 582-bet
7. Siddiq Mo‘min. Biomaydon. “Farg‘ona” nashriyoti – 2022.
8. Siddiq Mo‘min. Mendan mehr kutayotganlar. “Farg‘ona” nashriyoti – 2007.
9. Д. А. Рустамова Метафорик эвфемизациянинг лингвокультурологик ва социопрагматик асослари, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация Фарғона – 2018
10. Махмараимова Ш. Т. “Ўзбек тили метафораларининг антропоцетрик тадқиқи (номинатив аспект)” фил. фан. доктори (DSc) диссертацияси автореферати Самарқанд -2020
11. https://cyberleninka.ru/article/n/metaforaning-mohiyati-va-turlari